

OLIJ TA'LIM MUASSASALARINI MOLIALASHTIRISH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI

Rizayev Xabib Abduraufovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.08.2025

Revised: 20.08.2025

Accepted: 21.08.2025

KALIT SO'ZLAR:

*oliy ta'lim,
moliyalashtirish,
moliyaviy nazorat,
moliyaviy mustaqillik,
daromad, moliyaviy
daromad..*

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimining mazmun-mohiyati, asosiy maqsadi va tashkil etilish tartibi yoritilgan. Oliy ta'limning yuqori malakali, mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdagi roli ta'kidlangan. Oliy ta'lim muassasalari (universitet, akademiya, institut) va ularning faoliyati, nodavlat oliy ta'lim muassasalarining akkreditatsiyadan o'tish tartibi hamda eksternat va masofaviy ta'lim shakllari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish masalalari, G'arbiy Yevropa davlatlari tajribasi asosida tahlil qilingan. Moliyalashtirishning erkin bozor, umumiy bozor va ijtimoiy-antibozor modellari misolida turli yondashuvlar tahlil etilgan. Fransiya, Germaniya, Gollandiya kabi mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish mexanizmlari, budget taqsimoti, talabalar va OTMlarning roli yoritilgan.

“Oliy ta'lim” atamasi zaminida iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo'llagan va o'z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi.

Oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy

sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oliy ta'lim tizimi

Oliy ta'lim tizimi quyidagicha tuzilgan:

- xususiy yoki davlat qaramog'ida ekanligidan qat'iy nazar ta'limiy hamda kasbga tayyorlash dasturlarini davlat ta'lim standarti asosida tatbiq etuvchi oliy ta'lim muassasalari;
- oliy ta'limni rivojlanishiga zarur bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-tadqiqot institutlari;

davlat tomonidan ta'limni boshqaruvchi idoralar, shuningdek, ularga qarashli bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalar.

Oliy ta'lim muassasalari

Oliy ta'lim muassasalari yuridik maqomga ega. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining quyidagi ko'rinishlari bor:

- universitet - oliy ta'lim dasturini bajarishda talabalarga egallayotgan sohasi bo'yicha yoki keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun keng qamrovli bilim berishga e'tibor qaratiladi;
- akademiya - oliy ta'lim dasturini bajarishda oliy ta'lim berish bilan bir qatorda keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun aniq bir yo'nalishga tayyorlaydi;
- institut - barcha oliy ta'lim muassasalari kabi oliy ta'lim dasturini bajaradi, bilim berishda bir yo'nalishga qaratilgan bilim beriladi.

Oliy ta'lim olish uchun nodavlat muassasalarini tuzishga qonunchilik ruxsat beradi. Ushbu muassasaga davlat akkretaditatsiyani attestatsiyadan tegishli tartibda o'tgandan so'ng bersa u o'qitish huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasalarining Attestatsiyasi u davlatga tegishli yoki xususiylikidan qat'iy nazar, kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish Boshqarmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan, Davlat test markazi tomonidan qabul qilingan pedagogik kadrlar va ta'lim muassasalarining attestatsiyadan o'tkazish Nizomi asosida oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar jamoasi attestatsiyasidan o'tkaziladi. Attestatsiya natijalariga ko'ra istalgan oliy o'quv muassasasi davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Eksternat - oliy ta'lim dasturiga muvofiq oliy ta'lim muassasasining o'qitiluvchi tartibini keyingi (joriy va yakuniy) attestatsiyagacha tanlangan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha mustaqil o'rganish.

Masofaviy ta'lim - asosiy faoliyatdan uzilmagan holda ta'lim muassasasidan uzoqda o'quv dasturidagi mavjud bilimlarni o'zlashtirish. U zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyaning texnik vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Kunduzgi o'qitish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashning yo'nalishlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

XX asrning oxirgi o'n yilligida ko'pchilik G'arbiy Yevropa mamlakatlari oliy ta'lim tizimida keskin moliyaviy muammolar vujudga keldi. Oliy ta'limda bir talabaga davlat budjetidan ajratmalar va YAMMning jon boshiga ulushi 70-80 yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi. Shunga qaramay oliy ta'limni moliyalashtirishda davlatning roli muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim xarajatlari ortishi ta'lim olish uchun to'lovlar oshishiga sabab bo'ladi. Shu sababli oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning bozor mexanizmlari bilan ta'limning demokratlashuvi va ommabopligini ta'minlashni birgalikda amalga oshirish masalasi muhimdir. OTMni moliyalashtirishda xususiy sektor Daniya, Kanada, Avstraliya va Gollandiya mamlakatlarida faol o'rin tutadi. Ushbu davlatlarda umumiy OTM xarajatlarida xususiy sektor ulushi 16-37 %ni tashkil etadi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida oliy ta'limni moliyalashtirish masalasini oilalar va talabalarining o'zlariga yuklash maqsad qilib qo'yilgan. Bepul oliy ta'lim samarasiz va tengsizlikni namoyon etuvchi tizim sifatida tanqid qilinadi. Davlatlar xususiy firmalarni oliy ta'limni moliyalashtirishga jalb etish va ushbu sohada bozor mexanizmini rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda.

Oliy ta'limni moliyalashtirish muammolari bo'yicha bahs-munozaralarda OTMlarni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektorlarning ulushi qay darajada bo'lishi asos sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'limni xususiy moliyalashtirish tarafdorlari insonga yo'naltirilgan investitsiyalar sifatida oliy ta'lim olishga qaratilgan, mehnat unumdorligi va ish haqini oshiruvchi "inson kapitali" konsepsiyasiga asoslanadi. Oliy ta'lim bitiruvchilariga muayyan foyda keltirishi nuqtai nazaridan ular oliy ta'limni moliyalashtirishda ishtirok etishlari lozim.

Xususiy moliyalashtirishni oqlovchilar, odatda, talabalar ta'lim xarajatlarini o'z hisobidan qoplashi tufayli o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirishga harakat qiladilar, deb hisoblaydilar. Bundan tashqari ta'lim xarajatlari uchun o'z hisobidan to'lovlarni amalga oshirgach, ta'lim dasturlariga o'ziga xos talablarni ham belgilashlari mumkin (bepul ta'lim oluvchilar ko'p hollarda qanday dastur taklif qilishsa borligicha qabul qiladilar).

G'arb olimlarining ko'pchiligi oliy ta'lim muammolarini hal qilishning eng samarali

=====

usuli sifatida moliyalashtirishning aralash usulini ko'rsatadilar. Shu o'rinda davlat va xususiy moliyalashtirish manbalarining ulushi qanday bo'lishini belgilab berish qiyin masala hisoblanadi. Buning asosiy sababi sifatida oliy ta'limga investitsiyalar yo'naltirishning ichki va individual manfaatlarini baholashning murakkabligini keltirib o'tish mumkin.

Oliy ta'limni moliyalashtirish tizimida ro'y berayotgan yana bir o'zgarish bu ta'lim kreditlarining ommalashishidir. Ushbu turdagi kreditlarning tashkil etilishi oliy ta'limni moliyalashtirishning bir qismini iste'molchilarga yuklash hisoblanib, mutanosib ravishda davlat moliyalashtirishi ulushi qisqarib boradi.

XX asrning 80-90 yillarida G'arbiy Yevropa mamlakatlari oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish masalasida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Davlat tomonidan moliyalashtirish asosiy manba sifatida saqlab qolinishi bilan birga, moliyalashtirish mexanizmlariga o'zgartirishlar kiritish orqali asosiy vazifa xarajatlarning ko'pchilik qismini aholiga yuklashga qaratilgan edi (o'qish uchun to'lovlarni tashkil etish, stipendiyalarni belgilash tartibini o'zgartirish, ta'lim kreditlari va h.k.). Davlat xususiy firmalarni OTMlarni moliyalashtirishga, ushbu sohada bozor mexanizmini shakllantirishga undaydi. Moliyaviy mablag'lar taqchilligi sharoitida OTMlar qo'shimcha manbalarni jalb etish va mavjud mablag'lardan samarali foydalanishga harakat qiladilar.

Rivojlangan mamlakatlarda moliyalashtirish manbalarining eng ko'p tarqalgan uch usuli mavjud bo'lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Erkin bozorga yo'naltirilgan moliyalashtirish modeli. Ushbu modelning turli ko'rinishlari ayrim Yevropa mamlakatlarida qo'llaniladi. Modelning asosiy maqsadi talabalar ta'lim olish sifat darajasini oshirish, OTM daromadlarini oshirish va kadrlarni ish o'rinlariga mos ravishda tayyorlashga qaratilgan. Ta'limni moliyalashtirishning neoliberal siyosati davlat hamda alohida shaxslar va xususiy sektor tomonidan moliyaviy mablag'larni jalb etish yangi usullarini izlab topishni maqsad qiladi. Bu holat davlatning ta'limdagi o'rnini qisqartirish va OTM doirasida qarorlar qabul qilinishiga aralashmaslikni nazarda tutadi. Faqatgina zaruriy boshlang'ich ta'lim va iqtidorli talabalarning ta'lim olishlari ma'lum miqdorda bepul hisoblanadi. Moliyalashtirishning neoliberal modeli qilingan xarajatlarga emas, balki natijalarga yo'naltirilgan. Neoliberalizmning ushbu amaliyoti "inson kapitali" nazariyasi asoschilari: M. Fridman, F.A. Fon Xayek, F.Chabba va T.M. Moe ishlarida tadqiq etilgan.

Klassik neoliberal bozor turi ta'limni moliyalashtirish modelini aniqlaydi va so'nggi o'n yillikda ushbu modellar amaliyotda, asosan, Yevropa mamlakatlaridan tashqarida qo'llanilib

kelinmoqda. Ular asosan AQSH, Angliya, Shotlandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika, Gollandiya, Ispaniya va ba'zi Sharqiy Yevropa mamlakatlarida qo'llanilgan.

Ta'limning ommabopligini ta'minlovchi asosiy elementlar sifatida quyidagilar namoyon bo'ladi:

- ta'limning vaucherlari tizimi qo'llanilishi;
- maxsus grantlar dasturini taklif etuvchi OTMlarni rivojlantirish;
- kreditga ta'lim olish yoki qismlarga bo'lib to'lash orqali shaxsning ta'lim to'lovlarini qoplash imkoniyatlarini oshirish;
- talab asosida maxsus, yangi yo'nalishlarni ta'lim xarajatlarini qoplash;
- amaliyotda korxonalar "nou-xau" sini o'rganish uchun maxsus tayyorlov dasturlarini to'lash;
- o'qish davrining oxirgi yilini bevosita ishlab chiqarish korxonasiga o'tkazish;
- korxonalarda ta'lim olish dasturlarini davlat moliyaviy ko'magi va shaxsiy mablag'lar hisobidan qoplash.

2. Umumiy bozorga yo'naltirilgan ta'limni moliyalashtirish modeli. G'arbiy Yevropa mamlakatlari sotsial-demokratik partiyalari tomonidan ma'qullangan ushbu ta'limni moliyalashtirish tizimining xususiyati ta'lim oluvchining o'qish mobaynidagi va karera yaratish davridagi o'z mas'uliyati bilan davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining javobgarligida muvozanat bo'lishidadir. Ushbu modelning nazariy asosi sifatida insonparvarlik g'oyasi namoyon bo'ladi. Moliyaviy mablag'lar real mehnat jarayoni talablarini qondirish hamda ta'limning hammabopligini ta'minlash maqsadida davlat OTMlari samaradorligini oshirishga yo'naltiriladi. Ushbu model ta'lim tizimiga yo'naltirilgan davlat mablag'larini qisqartirish va individlarning ta'limga yo'naltirilayotgan sarmoyalari miqdorini oshirishni nazarda tutadi. Moliyaviy mablag'lar iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik talablarga javob berishi, ta'limning hammabopligini ta'minlovchi islohotlarni qo'llab-quvvatlashi lozim.

Yangi texnologik rivojlanishga zamin yaratuvchi iqtisodiy nazariyalar ijtimoiy-demokratik nazariy tafakkur va ijtimoiy rivojlanishning yangi g'oyalariga ta'sir o'tkazadi. Shu nuqtai nazardan oliy maktablar ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatuvchi tarkibiy tuzilma sifatida namoyon bo'ladi.

3. Muqobil integratsiyalashgan jamiyatga yo'naltirilgan ta'limni ijtimoiy moliyalashtirishning antibozor modeli. Kasaba uyushmalari namoyondalari uchinchi

modelni afzal ko'radilar. Ularning fikriga ko'ra, davlat kelajakdagi barqaror rivojlanishi uchun ta'lim tizimini moliyalashtirishni o'z zimmasiga olishi lozim.

Moliyalashtirishning yangi manbalari sifatida korxona va tashkilotlardan undiriladigan soliqlar namoyon bo'lishi mumkin. Moliyalashtirishning ushbu modeli o'qituvchilar sonini oshirishni, OTM ishchi va xizmatchilari ish vaqtini qisqartirish, professor-o'qituvchilarning ish haqi darajasini oshirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda ushbu takliflar o'z kuchini yo'qotgan. Shu sababli yangi modellar ishlab chiqilmoqda. Ushbu yo'nalishning nazariy asosi Yevropa kasaba uyushmalari tadqiqot instituti (Bryussel), Germaniya kasaba uyushmalari tadqiqot instituti Kengashi va Germaniya ta'lim tizimi xodimlari tadqiqot markazi (Frankfurt) tomonidan yaratilmoqda.

Ayrim rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish jarayoni tavsifining qisqacha mazmunini keltiramiz (Populyarniye finansi, № 10.2024, statya «Vissheye inostrannoye», stranitsa 62; //Populyarniye finansi № 3, 2025.).

Fransiya. Fransiyada Oliy ta'lim muassasalari moliyaviy mablag'larining qariyb 90 %i markaziy budjetdan ta'minlanadi. Mablag'lar taqsimotiga Moliyaviy Bosh Boshqarma va Ta'lim Vazirligi mas'uldir. Oliy maktablar barcha xodimlari davlat xodimlari hisoblanadi va vazirlik tomonidan ishga qabul qilinadi. Ularning ish haqi miqdori ta'limga yo'naltiriladigan davlat budjeti mablag'larining qariyb 70 %ini tashkil etadi; 10 %ga yaqini talabalarga moliyaviy ko'maklashishga ajratiladi (stipendiyalar, tibbiy sug'urta, ayrim imtiyozlar); 2-3 % qurilish va ta'mirlash ishlariga. Faqatgina qolgan qismi, ya'ni 17-20 % mablag' OTMlar ixtiyoriga subsidiyalar sifatida ajratiladi.

Fransiya ko'pgina davlat OTMlarida SANREMO modeli qo'llaniladi. Zarur mablag'larni hisoblashda asos sifatida ta'lim oluvchi talabalar soni namoyon bo'ladi. Keyinchalik OTM kategoriyasiga qarab, zarur bo'lgan qo'shimcha o'qitish soatlari, professor-o'qituvchilar ilmiy darajasi va ish haqiga bog'liq holda o'zgartirishlar kiritiladi.

Davlat oliy ta'limni moliyalashtirishga mas'ul va g'aznachi sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'limga yo'naltirilgan mablag'larning faqat bir qismi bevosita OTMlar ixtiyorida bo'ladi ("rivojlantirish" moddasi bo'yicha). Masalan, 1998 yildagi ma'lumotlarga ko'ra, ajratilgan 48,5 mlrd. frank budjet mablag'laridan, faqatgina 10 mlrd. frank OTMlar ixtiyorida bo'lgan. Ish haqi 26,6 mlrd. talabalarga stipendiyalar – 8,2 mlrd., qurilish – 1,8 mlrd. frankni tashkil etgan.

Fransiya oliy ta'lim tizimining xususiyatlaridan biri biznes sektorining ta'lim tizimida zaruriy tarzda ishtirokining qonun tomonidan kafolatlanganidir. Ta'limga yo'naltirilgan soliq korxona daromadining 0,5 %i tashkil etadi. Ushbu ajratmalardan oliy ta'lim fondi

shakllantiriladi.

Agar korxona hamda ma'lum bir OTM hamkorlik shartnomasiga ega bo'lsa soliq ajratmalari miqdoridagi mablag'lar shu OTM ixtiyoriga o'tkaziladi.

Germaniya. Germaniyada oliy ta'lim asosan davlat sektoriga qarashli bo'lib, ta'lim olish bepul va hammabopdir. 95,7 % mablag'lar mahalliy xukumat budjetidan va 4,3 %ga yaqin mablag'lar federal budjetdan ajratiladi. Federal budjet ajratmalari asosan qurilish va ta'mirlash ishlariga yo'naltiriladi. Davlat OTMlarida ta'lim olish bepul va 30 %ga yaqin talabalarga moliyaviy ko'mak: pensiya yoki imtiyozlar tarzida ajratiladi.

90-yillar oxirlarida Germaniyada ta'lim sohasida boshlangan islohotlarning asosini "sifat va raqobatbardoshlik" tashkil etdi. Islohotlarning asosiy maqsadi oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning qattiqqo'l davlat mexanizmidan egiluvchan OTMlarining mas'uliyati, manfaatdorligi va javobgarligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarga o'tishni bosh maqsad sifatida belgilagan.

1-jadval

YEI mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalarini budjetdan
moliyalashtirish mexanizmi

Davlatlar nomi	OTM tomonidan loyihalashtirilgan budjet bazasi bo' yicha	Budjetlashtirish, utgan davr xarajatlariga asosan	Formulasi moliyalashtirish	Strategik maqsadlarga asoslangan xizmatlarni taqdim etish uchun tuzilgan shartnomalar	Turli mutaxassisliklar bo' yicha mutaxassislar chiqarishga asoslangan maqsadli ko' rsatkichlar bo' yicha tuzilgan shartnomalar	Maxsus loyihalarni maqsadli moliyalashtirish
Avstriya			•	•		•
Belgiya	•		•	•		•
Bolgariya	•		•			•
Buyuk Britaniya (Ang., Uels, Shim. Irlandiya)			•			•
Vengriya			•			•

Gretsiya	•	•	•	•		•
Daniya		•	•	•		•
Irlandiya	•		•			•
Islandiya		•	•	•		•
Italiya		•	•			•
Kipr	•					
Latviya			•		•	•
Litva			•			
Lixtenshteyn			•			•
Lyuksemburg	•			•		...
Malta	•					•
Niderlandiya			•			•
Norvegiya		•	•			•
Polsha		•	•			•
Portugaliya	•		•	•		•
Ruminiya			•	•		•
Slovakiya			•	•		•
Sloveniya	•		•			•
Finlyandiya			•	•		•
Fransiya			•	•		•
Chexiya			•	•		•
Shvetsiya			•	•		•
Estoniya			•		•	•

Manba: Eurydice (2023). Higher Education Governance in Europe. Policies, structures, funding and academic staff.

Bugungi kunga kelib Germaniya davlatining ko‘pgina hududlarida oliy ta’limni tartibga soluvchi qonunchilik asosini takomillashtirish va moliyalashtirishning yangi sxemalarini joriy etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Ayrim OTMlarda tajriba sifatida yalpi budjetdan ajratish usuli qo‘llanilmoqda, ya’ni OTMlar moliyaviy mablag‘lardan foydalanishda erkinlik ta’minlanadi. Moliyalashtirishning yangi tizimi OTMlarga moliyaviy mablag‘lardan foydalanishda ma’lum darajada erkinlik yaratishi bilan birga natijalar bo‘yicha qattiqqo‘l nazorat saqlanib qoladi.

Mavjud moliyaviy talabni o'rgangan holda mablag'larni ajratish va har bir xarajat turini belgilab qo'yishdan farqli ravishda moliyalashtirishning yalpi tizimi OTMlarga moliyaviy mablag'lardan foydalanishda erkinlik beradi, moliyaviy boshqaruv samaradorligini ta'minlaydi va xarajatlar smetasi keng ommaga taqdim etilishini ta'minlaydi.

Shimoliy Reyn – Vestfaliya hududi 1995 yildan buyon OTMlarga moliyaviy mablag'larni ajratishda sifat ko'rsatkichlariga e'tibor bera boshladi. Oldingi davrda asosan bir ko'rsatkich – talabalar soni e'tiborga olinardi. Keyinchalik olib borilgan tadqiqotlardan tushumlar va himoya qilingan dissertatsiyalar soni (faqat universitetlar uchun) hisobga olinib boshlandi.

Gollandiya. 18 yoshgacha bo'lgan yoshlarda ta'lim olish bepul hisoblanadi. 18 yoshdan oshganlarga ta'limning barcha turi pullikdir. Oliy ta'lim kunduzgi bo'lim talabalari stipendiyalar bilan ta'minlanadi.

Gollandiya davlati hukumati bugungi kunda ham oliy ta'limni strategik rejalashtirishni va mablag'lar taqsimotini takomillashtirmoqda. 2001 yildan buyon oliy ta'limda vaucher tizimi tajriba tarzida qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu davlat moliyalashtirish tizimida e'tiborga loyiq tomoni – talabalar mas'uliyati, tashabbuskorligi va javobgarligini oshiruvchi moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi hisoblanadi.

Umuman, Gollandiyada oliy ta'limni davlat tomonidan boshqarishning bozor omillari va oliy ta'limning hammabopligini ta'minlovchi egiluvchan tizimi yaratilgan. Kelajakda vaucher tizimi uning asosini tashkil qilishi mumkin.

Gollandiya OTMlari daromadlari quyidagilardan tashkil topadi:

1. Ta'lim va ilmiy tadqiqot faoliyatlarini budjetdan moliyalashtirish (blokli grantlar).
2. Gollandiya ilmiy tadqiqotlari tashkiloti va Gollandiya qirolligi fanlar akademiyasi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadidagi grantlar dasturi.
3. Ta'lim hamda tadqiqot sohasidagi kontrakt faoliyatidan va talabalar ta'limi uchun to'lovlaridan tushumlar.

Asosiy muammolardan biri, OTMlar o'qituvchi-professorlar mehnat haqi xarajatlarini moliyalashtirish masalasidir. Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida universitet professorlari oylik ish haqlarini belgilash markaziy organ – masalan, Ta'lim Vazirligi tomonidan belgilanadi. Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligida professorlar davlat xizmatchilari sifatida qaralib, davlat organi nazorati ostida bo'ladi va ish staji oylik maoshning asosiy omili hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ilmiy xodimlar va universitet o'qituvchilarining ijtimoiy mavqei yuqoridir. AQSH ma'lumotlariga ko'ra, mehnat faoliyati eng yuqori bo'lgan davr (40-55 yosh) va o'rta ma'lumotli xodimlarning (12 yillik ta'lim) yillik ish haqi 22-25 ming AQSH dollarni tashkil etsa, oliy ma'lumotli xodimlarning ish haqi (17 yil va undan yuqori ta'lim) 40-50 ming AQSH

dollari tashkil etadi. Oliy ta'lim, ayniqsa, universitet ta'limi Germaniya va Fransiya ham mehnat haqi yuqori bo'lishiga omil bo'ladi. Agar oliy ta'limga ega bo'lmagan xodimlarning ish haqini 100 foiz deb olsak, oliy ma'lumotga ega ishchilar ish haqi Germaniyada 163 foizga va Fransiya 175 foizga oshadi (Ekonomika i organizatsiya upravleniya vuzom. - SPbs: Lan, 2023. – 12 s.).

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Yevropa ittifoqi va aholining turmush tarzi yuqori hisoblanadigan mamlakatlarda fan va ta'limga bunday holdagi munosabat mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga va yuqori turmush darajasiga hamda aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomicheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of corporate finance. McGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolyutsiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie tekhnologii. 2025. – s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitiye i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va

=====
taraqqiyot. 2024.

11. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.

12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.

13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.

14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.

15. Publis Finanse: A Sontemporary Applisition of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning

16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.

